



SO'FI OLLOYOR- TASAVVUF TARIQATI NAMOYANDASI

Bozarov Nuralibek Saidmurod o'g'li¹, Raxmonqulov Ma'murjon
g'ofurjon o'g'li², Axtamova Xurshida Jamshid qizi³

^{1,2,3} Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti talabalari

e-mail: nuralibekbozarov07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6321195>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 14 -fevral 2022

Ma'qullandi: 19-fevral 2022

Chop etildi: 24 - fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

So'fi Olloyor masjidi,
tasavvuf, «Maslak ul-
muttaqin», Jo'ybor
shayxlari, Xonaqoh

ANNOTATSIYA

Maqolada XVII asrda yashab o'tgan tasavvuf ilmining namoyandalaridan biri bo'lgan So'fi Olloyor hazratlarining hayot yo'llari va ijodi, va u kishining muborak qadamjosi va masjidi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Bundan tashqari, hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari haqida to'xtalib o'tiladi.

Surxon vohasida xususan, Oltinsoy tumani hududida muqaddas qadamjolar ko'p. Ulug' kishilar, aziz-avliyolar yashab o'tgan. Tasavvuf ilmining pirlaridan bo'lgan So'fi Olloyor, Ho'jaipok Ota, Said ibn Vaqqos, Movlono Zohid Xalifa Bobo kabi benazir insonlarning tabarruk xoklari shu yerda. Moturidiya mazhabining shakllanishi va rivojlanishida Movarounnahr ulamolarining, xususan, O'zbekiston olimlarining alohida o'rinlari borligi hech kimga sir emas. Bu yurtdan yetishib chiqqan allomalar barcha sohalarda butun dunyoga ustoz bo'lganlar. Ularning kitoblari ham dunyoga mashhur. Ana shunday ulug'ustozlardan biri So'fi Olloyor hazratlaridir.

XVII asr tasavvuf ilmining bilimdoni va shoir So'fi Olloyor (1644-1724) Samarqandning Kattaqo'rg'on bekligiga qarashli Minglar qishlog'ida tavallud topgan.[1] So'fi Olloyor dastlab o'z

qishlog'ida savod chiqaradi. Shayxlar qishlog'ida ta'lim olib, so'ngra 12 yoshida Buxoroga borib Jo'ybor madrasasida o'qishni davom ettiradi. So'fi Olloyor o'zining iqtidori, qobiliyati, donoligi tufayli madrasani imtiyozli tugatib, Buxoro xonining e'tiboriga tushadi, maqtov yorlig'i bilan mukofotlanib, 25 yoshida xonlikning bojxona-soliq to'raligi lavozimiga tayinlanadi. Bu lavozimda halollik va fidoiylik bilan ishlab xonlik xazinasini boyitishga munosib hissa qo'shadi. Xonning maqtov va mukofotlariga sazovor bo'ladi, lekin oddiy fuqarolarning qiyinchiliklarini, xonlikdagi ba'zi mansab ahlining nohaqliklarini ko'rib o'z vazifasidan voz kechib, taqvo yo'lini tutishga ahd qiladi. Nihoyat tasavvuf yo'lini tanlab, zuhdu ibodatga berilib ketadi. O'sha davrning ulug' olimi, shayx Habibulloh qo'lida 12 yil tahsil olib, tariqat sirlarini o'rganib, o'zi ham shayxlik (murshidlik) darajasiga



yetadi. Xalqqa shariat va tasavvuf ta'limotini tushuntirish maqsadida (Panjikent, Urgut, Shahrisabz, G'uzor, Dexqonobod, Boysun, Sherobod, Qabadiyon, Qorategin, Hisor, Dehnav (Denov) va boshqa shahar -qishloqlarga) safar qilib, u yerlarda bir necha yillar yashab, tolibi ilmlarga shariat va tariqat ahkomlaridan ta'lim beradi. Buxorodagi Jo'ybor shayxlari dargohida ta'lim olgandan so'ng murid izlab Sharqiy Buxoro bekligida joylashgan Vaxshivor qishlog'i (hozirgi kunda Oltinsoy tumanida) ga kelgan va bu qishloqni maskan tutgan. So'fi Olloyor ko'plab ilmlar bo'yicha yetuk olim hamda fors tilida ham, turkiy tilda ham mahorat bilan ijod etgan ulamolardan hisoblanadi. Asarlarida kelgan ma'lumotlarga ko'ra bu zot Shayx Habibulloh, So'fi Navro'z Buxoriy va Xo'ja Mo'min singari ustozlardan ta'lim olgan. So'fi Olloyor zabardast shoirgina emas, ayni paytda yirik mutafakkir, olim hamdir. U «Maxzanul mutaqqin» asarini arab tilida, «Maslakul muttaqin» va «Murodul orifin» asarlarini fors tilida, «Sabotul ojizin» kitobini turkiy tilida yozib, Islom olamiga ulug' meros qoldirib ketgan. So'fi Olloyor kitoblari o'z davrida ham, keyingi davrlarda ham madrasalarda va xalq orasida keng miqyosda o'qitilganligi uchun ham uning nomi va kitoblari mashhur bo'lib ketgan. Turkiy va forsiy tillarida ijod qilgan. So'fi Olloyor ijodining asosiy yo'nalishi islom ma'rifatini keng xalq orasiga yoyish va tasavvufning insoniy kamolot bilan bog'liq g'oyalarini targ'ib-tashviq qilishdan iborat bo'lgan.[2] So'fi Olloyorning shoh asari «Maslak ul-muttaqin» bo'lib, 12 ming bayt, 135 ta katta-kichik bobdan iborat.[3] Ilohiy ma'rifatning badiiy talqiniga bag'ishlangan bu asar el orasida shuxrat tutganidan so'ng

do'stu yaqinlari undan turkiy tilda ham shunday bir kitob yozishni iltimos qiladilar. Bunga javoban u «Maslak ul-muttaqin»ni birmuncha qisqartirib, o'zbek tilida nazmda bitgan va unga «Sabot ul-ojizin» deb nom bergan. O'zbek falsafiy-didaktik adabiyotining yetuk namunasi bo'lmish ushbu asarda tasavvuf ta'limotining ma'naviy-axloqiy masalalarini keng yoritish bilan u turkiy tasavvuf adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan. So'fi Olloyorning «Sabotul ojizin» kitobi odamlar orasida «Mag'zi Qur'on» sifatida e'tirof etilgan va bu asarni ba'zilar yoddan bilgan. So'fi Olloyor asarlari juda ko'p marta qo'lyozma sifatida ko'chirilgan va nashr qilingan. «Maslakul muttaqiyn» asari o'n to'qqizinchi asrning ikkinchi yarimida Qo'zixo'ja Hafizxo'ja o'g'li Turkistoniy tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan. Bu kitob 2007-yilda Sayfiddin Sayfulloh va Akrom Dehqonlar tomonidan nashrga tayorlanib chop etilgan. So'fi Olloyor adabiy merosi o'zbek mumtoz adabiyoti va tasavvuf tarixida alohida o'rin tutadi. Xoja Ahror Valiy, Mahdumi A'zam kabi bobokalonlarimiz Naqshbandiya ta'limotini ijtimoiy hayotga tadbiiq etishda namuna bo'lganlar. Asarlarida islom ahkomlari, tariqat talablari, insoniy komillik shartlarini birma-bir ta'riflab bergan. Axloqiy-talimiy ahamiyati jihatidan, xususan, «Maslak ul-muttaqin» va «Sabot ul-ojizin» asarlari maktab va madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o'qitilib kelgan. So'fi Olloyor bu tariqatning ta'lim tizimini madrasalarga ham olib kirdi. Allomaning «Maslakul muttaqin» asari Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Eron, Iroq, Tatariston va boshqa o'lkalarda bir necha bor chop etilgan. [4] So'fi Olloyor bobomizning vafot etgan yili ko'pchilik tadqiqotchilarning



qarashlariga ko'ra, 1724-yilga to'g'ri keladi. Qabrlari Surxondaryo viloyatining hozirgi Oltinsoy tumaniga qarashli Katta Vaxshivor qishlog'idadir. Katta Vaxshivor qishlog'ining mashhurligi So'fi Olloyor hazratlarining nomi bilan bogliq. So'fi Olloyor bu qishloqni obodonlashtirib, Qorabuloq nomi bilan ataluvchi buloqdan chiqqan suvni qishloqqa olib kelib, 1713-yilda xalq hashari usulida masjid qurib ishga tushuradi. Bu masjid bugungi kunda ham xalqqa xizmat qilmoqda.

So'fi Olloyor xayotining keyingi yillarini (1710-1724) Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi (hozirgi Oltinsoy tumani) Katta Vaxshivor qishlog'ida o'tkazib 90 yoshlarida shu joyda vafot etgan va dafn etilgan. Serfayz qabrlari Katta Vaxshivorda joylashgan. So'fi Olloyor hazratlarining ko'plab avlodlari hozirda ushbu qishloqda yashaydilar. Hozirgi kunda So'fi Olloyor hazratlarining avlodi bo'lmish Muzaffarxon Umarov Katta Vaxshivor qishlog'ida mahalla oqsoqoli bo'lib ishlaymoqda. So'fi Olloyor masjidi 1713 - yilda qurilgan. Masjidning umumiy hajmi 14,0x16, 2 m. Xonaqoh (11,1 x9,7), ikki tomoni ayvon va qo'shimcha xonalardan tashkil topgan. Xonaqoh va ayvon tomi to'sin bilan yopilgan. Sinchli paxsadan qurilgan. Shimoliy — sharqiy tomoni hashatli bo'lib, mehrobsimon ravoqlar ishlangan. Eshiklar tepasidagi tabadonlar ganchkori panjaralar bilan bezatilgan. Xonaqohdagi mehrob ravoqi ancha chuqur bo'lib uning ikki tomonidagi to'rt ravoqqa bo'rtma chiziqlar tortilgan. Bunday bezaklar janubiy — g'arbiy ayvon devorida

ham bor. Ayvondagi 7- va honaqohdagi 6-ustun o'yma va rangli naqshlar bilan bezatilgan. 1961-yildagi ta'mir davrida ustunlari va deraza panjaralari qayta ishlangan. Masjid shiftlarida, ustunlarida o'zbek va tojik tillarida turli zamonlarda har xil ma'rifatli kishilar qo'li bilan bitilgan dastxatlar bor. Masjid hovlisida So'fi Olloyor davrida ekilgan tut ko'karib turibdi.

Mustaqillik yillarida muqaddas qadamjolarga bo'lgan e'tibor yanada ortdi. Ulug' ajdodlarimizning nomlari qayta tiklandi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi va bevosita rahbarligida muqaddas tuprog'imizda tug'ilib voyaga yetgan ulug' siymolar – Bahouddin Naqshband, Imom Ismoil Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoniylar maqbaralari va boshqa o'nlab tarixiy yodgorliklar, muqaddas qadamjolarni obod etishdek qutlug' ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2005 -yilda esa So'fi Olloyor hazratlari mangu qo'nim topgan maskanni obod etish maqsadida «So'fi Olloyor» jamg'armasi tashkil etildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, So'fi Olloyor Markaziy Osiyoda yashovchi turkiy va forsiy tilli xalqlarni o'z asarlari bilan bahramand etib, ularni yagona islomiy va axloqiy hamda falsafiy-estetik mafkura yalovi ostida birlashtirdi. Natijada kurrayi zaminning turli mintaqalarida yashovchi xalqlar bir-birlari bilan ma'nan yaqinlashdilar va bir-birlarining ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan xabardor bo'ldilar. U zot o'zining ana shunday xizmatlari bilan millionlab kishilarning muallimi va murabbiysiga aylandi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Suvonqulov I. So'fi Olloyor // O'zbekiston buyuk allomalar yurti. Toshkent, Ma'naviyat . Movaraunnahr, 2010, 379- b.
2. Баратова Н.А. Сўфи Оллоҳёрнинг бадий-маънавий қарашлари. Самарқанд, 2002
3. Baratova N., So'fi Olloyorning badiiy-ma'naviy qarashlari, Samarqand, 2002.
4. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. - Toshkent : "Sharq" nashriyoti, 2004 - 208 bet.